

PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARINI O'QUVCHILARNING KASBIY IJTIMOIYLASHUVI FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING METODIK TA'MINOTI

Maxkamova Dilafruz Aliyevna

Qo'qon DPI Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası mudiri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14942655>

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogika yo'nalishi talabalarini o'quvchilarning kasbiy ijtimoiylashuvi faoliyatiga tayyorlashning metodik ta'minoti va uning bugungi kundagi amalga oshirish mexanizmlari bayon etilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarning kasbiy ijtimoiylashuvi faoliyatiga tayyorlash jarayoni – yoshlar psixologiyasini bilish, o'z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilik hususida ham ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. pedagogika yo'nalishi talabalari, kasbiy ijtimoiylashuv, yoshlar psixologiyasi, obyektiv va to'g'ri idrok qilish, kasbiy faoliyatning motivlari, ijtimoiy-kasbiy yo'naltirish.

МЕТОДИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ УЧАЩИХСЯ

Махкамова Дилафруз Алиевна

Заведующий кафедрой методики начального образования

Кокандской ГПИ

Абстрактный. В статье рассматривается методическое обеспечение подготовки студентов педагогической специальности к деятельности по профессиональной социализации обучающихся и механизмы его реализации на современном этапе. Также высказываются некоторые мысли о процессе подготовки будущих учителей к профессиональной социализации учащихся - знание психологии юности, знание организации собственного развития и талантов, оптимальной трудоустраиваемости в любом возрасте.

Ключевые слова. Студенты педагогических вузов, профессиональная социализация, психология молодежи, объективное и правильное восприятие, мотивы профессиональной деятельности, социально-профессиональная ориентация.

METHODOLOGICAL SUPPORT FOR PREPARING STUDENTS OF PEDAGOGICAL DEPARTMENT FOR PROFESSIONAL SOCIALIZATION OF STUDENTS

Makhkamova Dilafruz Aliyevna

Head of the Department of Primary Education Methodology of Kokand SPI

Annotation. This article describes the methodological support for preparing students of the pedagogical direction for the activities of professional socialization of students and the mechanisms of its implementation today. Also, some thoughts are expressed on the process of preparing future teachers for the activities of professional socialization of students - knowledge

of youth psychology, knowledge of organizing one's own development and abilities, and optimal employability at any age.

Keywords. students of the pedagogical direction, professional socialization, youth psychology, objective and correct perception, motives of professional activity, socio-professional orientation.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarning kasbiy ijtimoiylashuvi faoliyatiga tayyorlash jarayoni – yoshlar psixologiyasini bilish, o'z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorgarlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari suradi".[1.B.200] Pedagogika va psixologiya fanlarida o'quv hamda kasbiy faoliyatning motivlari tarkibi keng tadqiq qilingan. Biroq, o'quvchilar va faoliyat olib borayotgan yosh mutaxassislarining ijtimoiy-kasbiy yo'naltirish bilan bog'liq kasbiy motivatsiyaning mazmuniy jihatlari hanzugacha to'liq tadqiq qilinmagan.

"Adabiyotlar va tadqiqotlar natijalari quyidagi kasbiy-ahamiyatli sabablarni ajratib olish imkonini beradi:

- kasb va o'quv muassasasini tanlash sabablari;
- o'qish, o'quv kasbiy faoliyat sabablari;
- ish joyini tanlash sabablari;
- mehnat (kasbiy faoliyat) sabablari;
- kasbiy o'sish va martabasining oshish sabablari".[2.B.22]

O'quvchilarda kasb tanlash va kasbiy motivatsiyaning shakllanishi ularning ongida aks etgan aniq ijtimoiy-kasbiy yo'nalishning ta'siri bilan bog'liq holda shakllanadi, ya'ni "bu jarayon ma'lum darajada shaxsiy qadriyatlar va jamiyat ehtiyojlariga mos keladigan kasbiy tasavvurlar orqali shartlanadi:

- jamoatchilik fikri bo'yicha kasbning nufuzi;
- mazkur kasb bo'yicha iste'molchilar uchun mehnat natijalarining (mahsulotlar, xizmatlar) ahamiyati;
- mehnat bozorida kasbga (nomutaxassislikka) bo'lgan talab;
- katta maosh olish imkoniyati;
- kasbiy faoliyatning ijodiy xususiyati;
- mazkur kasbga bo'lgan qiziqish va yaxshi mutaxassis bo'lishga intilishi;
- kasbiy o'sish, mehnatda martaba oshirish istiqbollari".[3.B.98-99]

Tabiiyki, hozirgi yoshlarning aksariyatida kasbiy kelajagini tasodifiy hal etishlari ba'zi murakkab kechinmalarga, tanlagan faoliyat yo'nalishi bo'yicha ikkilanishlarga, ichki ziddiyatlarga sabab bo'lmoqda. Jumladan, A.N.Leontev talqinidagi shaxs, faoliyat, ong va ijtimoiy faollik o'rtasidagi psixologik uyg'unlikning mavjudligi shaxs munosabatlari tizimining psixologik mexanizmlarini shakllantirishda muhim metodologik ahamiyatga ega. V.D.Shadrikov esa "munosabat motivatsiyasi jarayonini faoliyat tizimining funksional psixologik modeliga bog'lagan holda faoliyatli yondashuv motivatsiyasi kasbiy

tayyorgarlikning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik istiqbollarini ochib berishini ta'kidlaydi".[4.B.12]

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, uning asosida alohida jismoniy shaxs yotadi. Shu sababli, har bir kasb tanlovchi shaxsga individual yondashuvni amalga oshirish muhimdir. Buning uchun kasb tanlovchining yoshi va jinsi xususiyatlariga asoslanib kasb ma'rifatini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bunda, avvalo, shaxsning kasbga bo'lgan zarurati, rag'bat, qobiliyati, qiziqishi va salohiyatini inobatga olish zarur. Aks holda, umumiy xarakterga ega tavsiyalar va ko'rsatmalar kutilgan natijani bermaydi, chunki har bir shaxsning o'ziga xos talablariga mos yondashuv talab etiladi. Hatto oddiy kasb haqidagi ma'lumotlar ham turli yondashuvni talab etadi, chunki ularsiz asosiy maqsadga erishishning imkoni yo'q. Kasb haqidagi ma'lumotlar – bu o'quvchilarni kasbning mohiyati, shuningdek, har bir kasbning shaxs oldiga qo'yadigan talablaridan xabardor qilishga qaratilgan samarali ma'lumotlar to'plamidir. Axborotlarning aniqligi, to'liqligi, shaxsiy va jamiyat uchun ahamiyatining aks ettirilishi bilan boshqa tarkibiy qismlardan ajralib turadi.

O'quvchilarni kasbiy ijtimoiylashuvi jarayoni dastlabki kasbiy madaniyat unsurlarini o'zlashtirishni talab qiladi. Kasbiy madaniyat doimo uni shakllantiruvchi ma'naviy poydevor bilan boyib, bu g'oyalar, bilimlar va inson maqsadlarining ramziy aksidir. G'oyasiz, bilimsiz va maqsadsiz kasbiy madaniyatni shakllantirishning imkoni yo'q. Ma'naviy madaniyatning natijasi esa moddiy shaklda namoyon bo'lib, shu yo'sinda moddiylashadi va ijtimoiy hamda kasbiy faoliyatga tatbiq etiladi. Kasb madaniyatining mohiyatini aniqlash mumkin, chunki u har qanday tashqi ifoda orqali insonning o'sish yoki yetuklik darajasini aks ettiradi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga doir didaktik resurslar quyidagilar hisoblanadi:

1-jadval

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI O'QUVCHILARNING KASBIY IJTIMOYILASHUVI FAOLIYATIGA TAYYORLASHGA DOIR DIDAKTIK RESURSLAR

№	DIDAKTIK RESURSLAR	TAVSIFI
1	Kasbiy ijtimoiylashuvga doir mediamanbalar	O'quvchilar uchun mo'ljallangan kasb tanlash, kasbiy ijtimoiylashuv, karyera imkoniyatlariga doir mediamanbalar o'quvchilarga har doim, takroran ma'lumot olish imkoniyatini beradi.
2	Kasb tanlashga doir testlar	Onlayn yoki yozma kasbiy ijtimoiylashuv testlari o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va shaxsiyatiga munosib ravishda identifikatsiya qilish va ma'lum bir kasbga mosligini aniqlash imkonini beradi.
3	Amaliyot	O'quvchilarning o'zlari qiziqqan sohalari, kasblari bo'yicha ilk tajribalar egallash imkoniyati amaliyot orqali amalga oshadi. Amaliy tajribalar o'quvchilarga qaror qabul qilishi uchun muhim hisoblanadi.

4	Kasbga yo'naltirishga doir tadbirlar	Hududlarda, turli tashkilot, korxona va muassasalar ishtirokida kasbiy ijtimoiylashuv tadbirlarini tashkil etish. O'quvchilar uchun kasblarga doir ma'lumotlarga ega bo'lish imkoni yaratilsa, tashkilot, korxona va muassasalar uchun potentsial bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga yo'naltirish imkoniyati mavjud bo'ladi.
5	Mentor dasturlar	Turli kasb egalari, mutaxassislar bilan yakka tartibda gaplashish, o'z savollarini berish. Mentorlikdan maqsad o'quvchilar o'z tanalyotgan kasbi bo'yicha o'z tasavvurlari, maqsadlarini mutaxassis bilan o'rtoqlashish. Bu ularning kasbiy rejalarini puxta bo'lishiga xizmat qiladi.
6	Kasbiy ijtimoiylashuvga doir maslahatlar	O'qituvchi bilan o'quvchining kuchli tomonlari, potentsiali va kayera maqsadlariga doir muntazam suhbatlar o'quvchilarning kasb-tanlashiga, o'zlarining kasbiy layoqatini identifikatsiya qilishga ko'maklashadi.
7	Kasb-hunar maktablari, bilim yurtlari va texnika o'quv maskanlari	Hududdagi kasb-hunar o'quv yurtlari, bilim maskanlari va texnika ta'lim muassasalariga tashrif buyurib, u yerdagi mavjud sharoitlarni o'rganish ham kasb tanlashga qiziqishni kuchaytirishga yordam beradi.
8	Onlayn resurslar	Internet sahifalari, kasbiy ijtimoiylashuvga doir turli ilovalar, platformalar, YouTube'dagi videokontentlar o'quvcilarning mustaqil ravishda kasblar bo'yicha batafsil ma'lumot olishiga yordam beradi.

Ma'lumki, "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fani pedagogik oliy ta'lim muassasalari Pedagogika (qo'shimcha "Tarbiya" fani o'qituvchisi) yo'nalishida majburiy fan sifatida 1 va 2 semestrlarda o'qitiladi. Auditoriya mashg'ulotlari uchun 136 soat va mustaqil ta'lim uchun 194 soat ajratilgan.

Mazkur faning maqsadi – bo'lajak pedagoglarni zamonaviy ta'lim fanlarining nazariy va tarixiy negizlariga oid bilimlar bilan ta'minlashdan iborat. Ilmiy-nazariy asoslar, pedagogika nazariyasi tushunchasi va uning asosiy kategoriyalari, shuningdek, o'quv jarayonini tashkil etish usul va shakllariga zamonaviy talablar qo'yiladi.

Ta'lim oluvchilar shaxsining shakllanish omillari va rivojlanish bosqichlari, yagona o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish va uni amalga oshirish tamoyillari, tarbiya jarayonining qonuniyatlari va qoidalarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish bu jarayonning ajralmas qismidir.

References:

1. Bayjonov F.B. O'spirinlarda kasb tanlash motivatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari: "Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish

masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – T.: Mahalla va oila nashriyoti, 2021. – 200 b.

2. Карандашев В.Н. Психология введения в профессию. 2-е изд. – Москва: Смысл, 2003. – С. 22.

3. Jumayev U.S. O‘quvchilarni kasbiy ijtimoiylashuvning ijtimoiy-psixologik asoslari. – Buxoro, 2002. – B. 98-99.

4. Климов Е.А. Как выбирать профессию. – М: “Просвещение”, 1990. – С.

INNOVATIVE
ACADEMY